XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2022 - yil 28 - iyun VI-64-94-11-169-K/22 Farg‘ona shahar hokimligi

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga muvofiq Farg‘ona shahridagi nomsiz ko‘chalarga nom berilishi borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-son qaroriga asosan, bugungi kunda Farg‘ona shahrida 70 ta mahalla fuqarolar yig‘ini, 382 ta ko‘cha mavjud bo‘lib, shundan Davlat reestriga kiritilmagan 1 ta mahalla fuqarolar yig‘ini, 20 ta ko‘cha nomlari belgilangan tartibda Geografik obyektlarga nom berish bo‘yicha Farg‘ona shahar komissiyasida ko‘rib chiqliib, to‘liq nomi va chegara hududlari belgilab olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 710-son hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2020-yil 14-noyabrdagi 304-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida shaharda amaldagi qonun talablariga zid bo‘lgan holatlarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilanib, bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shunga ko‘ra shahardagi 1 ta MFY va 20 ta ko‘cha nomlarini davlat reestriga kiritish bo‘yicha belgilangan tartibda rasmiylashtirish choralari ko‘rilmoqda. Jumladan;

Shahar hududidagi **Yulduz** MFY;

Tinchlik, Guliston, Bo‘ston hamda Abdurahmon Jomiy MFY hududidagi **Ozodlik shoh** ko‘chasi,

Tinchlik MFY hududidagi **Yangi davr** ko‘chasi, **Serquyosh** ko‘chasi hamda **Bog‘ yo‘li** ko‘chasi,

Shodiyona MFY hududidagi **Tiniqsoy** ko‘chasi,

Ma’rifat va Mirzo Ulug‘bek MFY hududidagi **O‘zbekiston ovozi** ko‘chasi,

Simtepa MFY hududidagi **Mahmud Qoshg‘ariy 1-tor** ko‘chasi, **Mahmud Qoshg‘ariy 2-tor** ko‘chasi,

Oybek MFY hududidagi **Moziy** ko‘chasi, **Moziy tor** ko‘chasi,

Shakarqishloq MFY hududidagi **Barqaror** ko‘chasi,

Al-Xorazmiy hamda Abdurahmon Jomiy MFY hududidagi **Abdurahmon Jomiy shoh** ko‘chasi,

Afrosiyob MFY hududidagi **Lola** ko‘chasi,

Yormozor MFY hududidagi **Yormozor** ko‘chasi, **Musaffo** ko‘chasi,

Ipak yo‘li MFY hududidagi **Qo‘rg‘ontagi** ko‘chasi,

Huvaydo MFY hududidagi **Samarqand** ko‘chasi, **Toshkent** ko‘chasi,

Surxtepa MFY hududidagi **Eski Farg‘ona** ko‘chasi, **Barkamol avlod** ko‘chalari nomlarini berilishi bo‘yicha belgilangan tartibda takliflar olingan hamda tegishli tartibda komissiyada ko‘rib chiqilib, xulosalar berilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, shuningdek, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-son qaroriga muvofiq Farg‘ona shahridagi ko‘cha nomlarini davlat reestriga kiritish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Farg‘ona shahar hokimining

maslahatchisi F.Mamajonovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahri bo‘yicha nomi Davlat reestri bazasida mavjud bo‘lmagan ko‘chalar ilovaga asosan Davlat reestriga kiritilsin.

3. Belgilansinki, ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror bajarilishiga Kadastrlar palatasining Farg‘ona shahar filiali rahbari O.Karimov shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining Ta’lim, sog‘likni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya bo‘yicha doimiy komissiya raisi Sh.Siddiqova hamda Farg‘ona shahar hokimining maslahatchisi F.Mamajonov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **V.Nazarov**

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar
Kengashining
2022 yil 28 iyundagi
VI-64-94-11-169-K/22-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona shahri bo‘yicha nomi Davlat reestri bazasida mavjud bo‘lmagan mahalla fuqarolar yig‘ini nomi to‘g‘risida MA’LUMOT

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Mahalla	Farg‘ona shahar	Nomsiz mahalla	Yulduz	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

Farg‘ona shahri bo‘yicha nomi Davlat reestri bazasida mavjud bo‘lmagan ko‘chalar nomi to‘g‘risida MA’LUMOT

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Shoh ko‘cha	Tinchlik, Guliston, Bo‘ston, Abdurahmon Jomiy MFY	Nomsiz ko‘cha	Ozodlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Ko‘cha	Tinchlik MFY	Nomsiz ko‘cha	Yangi davr	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Ko‘cha	Tinchlik MFY	Nomsiz ko‘cha	Serquyosh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Ko‘cha	Tinchlik MFY	Nomsiz ko‘cha	Bog‘ yo‘li	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Ko‘cha	Shodiyona MFY	Nomsiz ko‘cha	Tiniqsoy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	Ko‘cha	Ma’rifat, Mirzo Ulug‘bek MFY	Nomsiz ko‘cha	O‘zbekiston ovozi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
7.	Tor ko‘cha	Simtepa MFY	Nomsiz ko‘cha	Mahmud Qoshg‘ariy 1-tor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	Tor ko‘cha	Simtepa MFY	Nomsiz ko‘cha	Mahmud Qoshg‘ariy 2-tor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9.	Ko‘cha	Oybek MFY	Nomsiz ko‘cha	Moziy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10.	Tor ko‘cha	Oybek MFY	Nomsiz ko‘cha	Moziy tor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11.	Ko‘cha	Shakarqishloq MFY	Nomsiz ko‘cha	Barqaror	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12.	Shoh ko‘cha	Al-Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy MFY	Nomsiz ko‘cha	Abdurahmon Jomiy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13.	Ko‘cha	Afrosiyob MFY	Nomsiz ko‘cha	Lola	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14.	Ko‘cha	Yormozor MFY	Nomsiz ko‘cha	Yormozor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15.	Ko‘cha	Yormozor MFY	Nomsiz ko‘cha	Musaffo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16.	Ko‘cha	Ipak yo‘li MFY	Nomsiz ko‘cha	Qo‘rg‘ontagi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
17.	Ko‘cha	Huvaydo MFY	Nomsiz ko‘cha	Samarqand	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
18.	Ko‘cha	Huvaydo MFY	Nomsiz ko‘cha	Toshkent	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
19.	Ko‘cha	Surxtepa MFY	Nomsiz ko‘cha	Eski Farg‘ona	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
20.	Ko‘cha	Surxtepa MFY	Nomsiz ko‘cha	Barkamol avlod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq